



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

“ULUG‘BEK XAZINASI” ROMANIDA TARIXIY HAQIQAT VA TO‘QIMA OBRAZLAR TASVIRI

Ashurova Nigora

Toshkent farmatsevtika instituti, bo‘lim boshlig‘i (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada temuriylar davrining, xususan, Ulug‘bek hayoti haqidagi bilimini o‘rta asrlar Sharqning bu ulug‘ siymosi yashagan muhit murakkabligini anglashga, unda tarixiy siymolarning yaratilishi xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, Mirzo Ulug‘bek yashagan davrni badiiy adabiyotga ko‘chirish, o‘sha davr voqealiklarini hayot haqiqatiga mos ravishda yoritishda yozuvchining mahorati tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy adabiyot, roman, tarix, zamon, davr, tarixiy shaxs, tarixiy haqiqat.

«ИЗОБРАЖЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПРАВДЫ И ВЫМЫШЛЕННЫХ ОБРАЗОВ В РОМАНЕ «СОКРОВИЩЕ УЛУГБЕКА»

Ашурова Нигора

Ташкентский фармацевтический институт, заведующий отделом (PhD)

Аннотация

В данной статье рассматривается знание о периоде Тимуридов, в частности, о жизни Улугбека, с целью понять сложность среды, в которой жил этот великий деятель средневекового Востока, а также обсуждается создание исторических образов. Кроме того, анализируется мастерство писателя в переносе эпохи жизни Мирзо Улугбека в художественную литературу и в отражении событий того времени в соответствии с жизненной правдой.

Ключевые слова: художественная литература, роман, история, время, эпоха, историческая личность, историческая правда.

“DEPICTION OF HISTORICAL TRUTH AND FICTIONAL CHARACTERS IN THE NOVEL ‘ULUGBEK’S TREASURE’”

Ashurova Nigora

Tashkent Pharmaceutical Institute, Head of Department (PhD)

Abstract

This article discusses the knowledge of the Timurid period, particularly the life of Ulugh Beg, to understand the complexity of the environment in which this great figure of the medieval East lived, and addresses the creation of historical figures. It also analyzes the writer's skill in translating the era in which Mirzo Ulugh Beg lived into fiction and portraying the realities of that time in accordance with the truth of life.

Keywords: fiction, novel, history, time, era, historical figure, historical truth.

Tarixiy hodisalar haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishda adabiyot asarlari alohida rol o‘ynaydi. Chunki adabiyot asarlari — roman, qissa, hikoya, drama, doston va she‘rlarda olis zamonlarda bo‘lib o‘tgan voqealar, u paytlarda yashagan kishilar qiyofasi jonli va ta‘sirchan gavdalantiriladi. Tarix to‘g‘risidagi ilmiy tadqiqotlarda yoki muarrix — tarixchi-solnomachilar tomonidan bitib qoldirilgan va hujjatgohlarda (arxivlarda) saqlanayotgan mo‘tabar bitiklarda bo‘lib o‘tgan voqealar ma‘lum qilingan, ularning ishtirokchilari nomi, amal-mansabi, maqsadi qayd etilgan bo‘ladi. Roman, qissa, hikoya va dostonlarda esa voqea bo‘lib o‘tgan zamon va

makon tasvirlanib, o'sha davr odamlarining turmush tarzi, kiyinishi, dunyoqarashi, urf-udumlari, o'zaro munosabatlari badiiy tarzda gavdalaniriladi.

“O'tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Navoiy”, “Ulug'bek xazinasi”, “Ko'hna dunyo”, “Yulduzli tunlar”, “Javzo”, “Suyumbika” singari romanlar xuddi mana shu jihatlariga ko'ra ajdodlarimizning turish-turmushi to'g'risida har qanday olim yoki solnomachi-bitikchining asarlaridan ko'ra aniqroq tasavvur beradi. Chunki o'sha asarlarda zamon va makonlarga xos belgi-xususiyatlar musavvir mo'yqalami bilan yaratilgan kartinadek yorqin ko'rsatilgan. Temuriylar davri hayotini tasavvur qilish, u zamondagi hukmdorlar-u mudarrislar, savdogarlar-u sipohilar, qalandar-darvishlar va shayxlar to'g'risida muayyan bilim hamda tushunchaga ega bo'lishda “Ulug'bek xazinasi” romanining o'rnini biror tarixchining ilmiy tadqiqoti bosa olmaydi.

“Ulug'bek xazinasi” romani nafaqat o'zbek o'quvchilarining, balki millionlab xorijlik kitobxonlarning ham Temuriylar davri, xususan, Ulug'bek hayoti haqidagi bilimni boyitadigan, o'rta asrlar Sharqining bu ulug' siymosi yashagan muhit murakkabligini xayolan tasavvur qilishga va his etishga imkon beradigan barkamol asar sanaladi. Shuningdek, Abdullatif, Ali Qushchi singari tarixiy shaxslar to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlar, ularning nafaqat dunyoqarashi, balki ruhiy olami bilan ham bizni yanada yaqinlashtirishga erishadi. Asarda to'qima obrazlar salmog'i ham yetarli darajada. Ular orqali Mirzo Ulug'bek, Abdullatif, Ali Qushchi singari tarixiy shaxslarning turli qirralarini kashf etishda keng foydalaniladi. Odil Yoqubovning “Ulug'bek xazinasi” romani Ulug'bek va Abdullatifdek tarixiy shaxslar to'g'risida eng yorqin tasavvur beradigan asar sanaladi. Ulug'bek va Abdullatifning ushbu romanda gavdalanirilgan siymosi tarixiy haqiqatga har jihatdan mos keladi.

“Ulug'bek xazinasi” romanida Ulug'bekni mutaassib dindorlar va shuhratparastlar muhitida qolganidan, ilm-fan rivoji uchun o'zi istagandek xizmat qila olmayotganidan iztirob chekayotgan inson sifatida ko'rsatish asosiy o'rin tutadi. Shuning uchun romanning dastlabki sahifalaridanoq Ulug'bekning rasadxonada og'ir qayg'uga botgan holati gavdalaniriladi. Asarning ikkinchi qismidan boshlab esa bevosita Abdullatifning holatlari ham ko'rsatila boshlaydi. Asarda Ulug'bekka sadoqat bilan xizmat qilgan va uning eng yaqin shogirdlaridan biriga aylanib ulgurgan Ali Qushchi haqidagi ma'lumotlar ham tarixiy haqiqatga juda yaqin keladi. Jumladan, “Ulug'bek xazinasi” romanida shahar dorug'asi Mironshoh, amir Sulton Jondor kabi amirlar va lashkarboshilarning Ulug'bekning sadoqatli shogirdi Ali Qushchiga yovqarash qilib, sovuq munosabatda bo'lishi ham tarixiy haqiqatga muvofiq keladi. Ularning Ulug'bekka qarshi bo'lgani xususida Bo'riboy Ahmedov shunday deydi:

“Abdullatif Ulug'bek dushmanlarining ig'vosi bilan otasiga qarshi isyon ko'tardi va Abulqosim Bobur bilan til biriktirib, otasiga qarshi ittifoq tuzdi. 1449-yil 19-sentabrda Ulug'bek Samarqand yonidagi Dimishq shaharchasi yonida bo'lgan urushda mag'lubiyatga uchrab, Samarqand sari chekinadi, lekin shahar hokimi Mironshoh Qavchin podshohni ichkariga kiritmadi. Shundan keyin Ulug'bek Shohruhiyaga bordi, qal'a qutvoli Ibrohim ibn Po'lod ham hukmdorni shaharga qo'ymaydi, balki uni tutib, Abdullatifga topshirmoqchi bo'ladi... Ilojsiz qolgan Ulug'bek hokimiyatni Abdullatifga topshirib, umrining qolgan qismini ilm-u fanga sarflash niyatida Samarqandga borib, o'zini o'g'lining qo'liga topshirgan. Ulug'bek “ota bilan bola o'rtasida bir-biriga shafqat va muruvvat bo'lishi kerak”, deb o'ylagan edi, lekin u qattiq yanglishadi. Xoin Abdullatif aziz otasining hayotiga chang soldi. U otasining dindan ko'ra tabiiy ilmlar taraqqiyotiga ko'proq rag'bat qilganidan norozi bo'lib yurgan mutaassib ruhoniylardan “dindan chiqqan” Ulug'bekni o'ldirish haqida fatvo yozdirib oldi. Endi gal jallodga keldi.

“Mirzo Abdullatif, — deb hikoya qiladi Abdurazzoq Samarqandiy, — sohibqiron xon (Chingizxon) yuzini ko'rsatib hammaga amr qildiki, xon (Abdullatif Chig'atoy naslidan bo'lgan Mug'ul ismli kishini nomiga xon qilib qo'ygan edi) oldida tiz cho'kib, “Mirzo Ulug'bek mening falon kishimni g'ayriqonuniy ravishda o'ldirgan, uning xunini talab qilaman”, deb arz qilganlar. Ana shundaylardan biri suldus qabilasidan bo'lgan Abbos ismli shaxs xon oldida tiz cho'kib, Ulug'bekdan qachonlardir katta jinoyat qilgani uchun otasining xunini talab qildi. Xon

Abdullatifning ko'rsatmasi bilan Abbosning iltimosini qondirdi va tunda haj qilish uchun Makkaga jo'nab ketgan Ulug'bekning ketidan quvib yetib, uni Samarqand yaqinida xoinona o'ldirdi" [2, 129–130].

"Ulug'bek xazinasi" romanida Ulug'bek o'z fojeasini ichki bir his bilan sezgani uning portreti tasviri orqali ifodalab beriladi. Ulug'bek donishmand alloma bo'lgani uchun atrofida kechayotgan ig'vo-malomatlar xunuk oqibatlar keltirib chiqarishi, fojeaga olib kelishini sezgan va bundan qattiq iztirobga tushib, tashvish chekkan. Iztirob, qayg'u va alam esa kishini ruhan ezib, uning jismi va ko'rinishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Odil Yoqubov tarixiy haqiqatni aks ettirishda inson tabiatining mana shu jihatini ham e'tiborga olgan. Ulug'bek bilan uning eng sadoqatli shogirdi Ali Qushchining uchrashuvi, Ulug'bekning bu paytdagi ko'rinishi va qiyofasi mana bu tarzda ifodalanadi:

"Mirzo Ulug'bek boshqa paytlarda ham shogirdini "o'g'lim" deb atardi. Lekin bugun ustodning ovozida, shogirdini quchib so'zlashida bo'lakcha bir mehr, samimiyat, ayni zamonda qandaydir teran g'am-anduh sezilib turardi.

Ustod ko'zlari yarim yumuq, boshini egib, xayolga tolib o'tiradi. Uning cho'zinchoq qoramag'iz yuzi so'lg'in, keng peshonasi va qiyg'ir burnining ikki yonidagi ajinlari quyuvlashgan, zotan, butun vujudida, katta yalpoq kaftlarini tizzasiga horg'ingina tashlab o'tirishida chuqur iztirob, izhor etish qiyin bo'lgan teran bir mung bor edi" [4, 10].

Bu so'zlarda real hayotdagi bir kishining jonli qiyofasi aniq ko'rinadi. Ular Muhammad Haydar, Abdurazzoq Samarqandiy singari qadim zamon muarrixlari yoki Bo'riboy Ahmedov singari hozirgi davr tarixchilarining Ulug'bek to'g'risidagi mulohazalaridan ko'ra aniqrog'i bir manzarani tasavvur qilishga imkon beradi.

Odil Yoqubovning tasviri xuddi tajribali rejissyor tomonidan ishlangan, mahoratli aktyorlar rol o'ynagan badiiy film singari o'quvchi ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. "Ulug'bek xazinasi"dagi bu kabi o'rinlar badiiy adabiyot asarlari bilan tarixiy-ilmiy asarlar o'rtasida jiddiy farq borligini yaqqol bildiradi.

Tarixiy ilmiy asarlarda Ulug'bekning ilmparvarligi bu tarzda ma'lum qilinadi: "Ulug'bek ko'proq olim va fozil kishi edi va akademik V.V. Bartoldning so'zlari bilan aytganda, musulmon olamida uningdek podshoh mutlaqo bo'lmagan edi. U o'zining matematika, geometriya, falakiyot, tarix fanlaridan qilgan olamshumul kashfiyotlari bilan ilm-fan sahifalarida o'chmas iz qoldirdi".

Sho'ro davrida dinni qoralash, din allomalarini yomonlash avj olgan edi. Jumladan, "Ulug'bekni Xo'ja Ahror o'ldirgan, uning rasadxonasini Xo'ja Ahror buzdirgan" degan fikr uqtirib kelinardi. Vaholanki, Ulug'bek 1449-yilda o'g'li Abdullatif tomonidan o'ldirilgan. Bu paytda Xo'ja Ahror Toshkentda yashagan. U Temuriylar saroyidagi din peshvolariga o'z so'zini o'tkaza oladigan mavqega ega bo'lmagan. Temuriy shahzoda Sulton Abu Said taxtga chiqqach, 1451-yilda Xo'ja Ahror Valiyni Samarqandga ko'chirib keltirgan. Shoir Omon Matjon "Xaloskor ruh" badea-qissasida shunday yozadi: "Rasadxona! Kim uni buzdi, axir?! Bobur (XVI asrda Samarqandga keladi): "Yana bir oliy imorati Pushtayi Ko'hak domanasida rasadirkim, zich bitmakning olatidir. Uch oshyonalikdir..." Uch qavat! — deyapti Bobur. Rasadxona butun! Ko'rib aytayapti, hayratlanib aytayapti shoir. XVIII asrdagi ichki urushlar oqibatida nafaqat rasadxona, yuzlab boshqa manzillar, Xo'ja Ahrorning madrasalari ham vayron bo'ldi" [7, 16].

"Ulug'bek xazinasi" romanining avvalgi nashrlarida din peshvolarining hammasi qoralab ko'rsatilgan. Chunki asar XX asrning 70-yillarida yaratilgan va bu paytda dinga qarshi kurash avjiga chiqqan edi. Ammo barcha zamonlarda ham dinni o'z manfaati uchun dastak qilib, boshqalarga jabr-zulm o'tkazadiganlar bo'ladi. Ulug'bek yashagan zamonda ham o'shanday kimsalar bo'lgan va ular Ulug'bek fojeasiga sababchi bo'lishgan. "Ulug'bek xazinasi" romanida ana shu hodisa e'tiborga olinadi.

Romanda shunday bir o'rin bor:

"Shahzoda nigohi oldidagi sovuq manzarani quvish umidida ko'k charm jildiga zarhal bezak solingan qalin kitobni oldi:

Nizomiy Ganjaviy!

Shahzoda yoshligida, madrasada ta'lim olib yurgan chog'larida Nizomiyning musiqadaiy tiniq she'rlarini, purhikmat rivoyatlari va dostonlarini ko'p mutolaa qilgan edi. Shu sababdanmi, shahzodaning dilida umidga o'xshash qandaydir bir narsa "milt" etdi. Go'yo xayolini chulg'ab olgan mudhish jumboqqa Nizomiy Ganjaviydan javob topadiganday shosha-pisha kitobni ochib, birinchi misralariga ko'z yugurtirdi, yugurtirdi-yu, xuddi boshiga og'ir gurzi tushganday chayqalib ketdi. Ko'z oldi qorong'ulashib, ko'k charm jildlik kitob xuddi tushida ko'rgan oltin barkashday qo'lidan sirpanib tushib, yirtiq varaqlari gilamga sochilib ketdi...

Yorab! Hozir kitobni ochganda daf'atan ko'zi tushgan ilk misralar... tushida ko'rgan qonli kalladan ham dahshatli edi... shahzoda yuragini changallaganicha ko'zini yumdi, lekin zarhal harflar bilan bitilgan sirli misralar xuddi boyagi qonli kalladay ko'z oldidan ketmay, olovday lovillab turadi.

Shahzoda diliga dahshat solgan bu ikki baytni oxirigacha o'qidimi, yo'qmi, o'zi ham bilmas edi. Lekin undagi "Padarkush, toju taxt, olti oy..." degan so'zlar xuddi qizdirilgan temir bilan o'yib yozilganday miyasini jaz-jaz kuydirib, nigohi oldida yal-yal yonib turardi. "Padarkush, toju taxt... olti oydan oshmaydur..."

"Uning taxtga o'ltirganiga necha oy bo'ldi? Sha'bon oyi edi. Bu kun rabbiul avval... olti oy... bo'lmish!"

Shahzoda turgan joyida gilamga tiz cho'kib, sajdaga bosh qo'yar ekan, ko'ksidan achchiq faryod aralash bir nido otilib chiqdi: "Osiy bandangga o'zing shafqat qilgaysan, ey Parvardigori olam! Va lekin yozug'im nedur? Qudratingga shak keltirib, haq yo'lidan toygan ul betafiq galai saklarni qatliom qilganimmi? Bedinlar bitgan makruh kitoblarni o'tga yoqqanimmi? ... osiy bandanga ayon qil, yozug'i nedur, uning?"

Shahzoda yer o'pganicha ko'kka tavallo qilib, rahm-shafqat tilar, yum-yum yig'lab, telbalanib allanimalarni so'zlar edi..." [4, 304].

Ayni manzara Alisher Navoiyning Abdullatifga bergan tavsifining san'atkorona mahorat bilan badiiylashtirilgan manzarasi ekani, Odil Yoqubov tarixiy haqiqatga izchil amal qilgani, ammo uni ijodiy qayta yaratganini yorqin namoyon etadi.

Tarix oldida mas'uliyat his qilish, ulug' ajdodlar ruhini hurmatlash ijodkordan asl haqiqatni buzmaslikni, unga turli nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda ham noxolis yondashmaslikni taqozo qiladi. Afsuski, sho'ro davrida tarixni hukmron mafkura g'oyalari asosida ko'rsatish talab qilindi. O'tmishda o'tgan aksariyat hukmdorlar zolim, mustabid, qonxo'r, din peshvolari esa manfaatparast, shuhratparast, xudbin, shohlar, sultonlar, amaldorlarning maddohi deb talqin qilindi. Kaltabin, zolim hukmdorlar, poraxo'r, maishatparast, mansabparastlar, mutaassib amaldorlar va xushomadgo'ylik bilan mashg'ul din peshvolari hamma zamonlarda bo'lgan. Undaylar ayni paytda ham mavjud. Bu hodisani inkor etib bo'lmaydi. Ammo har bir zamonda ham adolatparvar hukmdorlar, iymon-e'tiqodli din ahllari, vijdonli, diyonatli amaldorlar bo'ladi. Shuning uchun haqiqat to'la-to'kis ko'rinishi uchun yozuvchi, avvalo, o'zi qalamga olayotgan voqealarga ishonirishi, turli toifadagi, turli fe'l-atvordagi odamlarni ko'rsatishi lozim.

"Ulug'bek xazinasi" romanida ana shu tamoyilga amal qilinadi.

Xiyonatkor amaldorlar, e'tiqodsiz shogirdlar bilan bir qatorda, Ulug'bekning sadoqatli safdoshlari, eng tahlikali, og'ir paytlarda ham uni unutmagan shogirdlari, ilm zahmatkashlari obrazi yaratiladi. Bu yozuvchining tarixiy haqiqatga hamda hayot haqiqatiga amal qilganidan dalolat beradi.

"Ulug'bek xazinasi" romanida tarixiy shaxslar Ulug'bek hamda Abdullatif munosabatlarini ko'rsatish asosiy o'rin tutadi. Ayni chog'da asarda Ali Qushchi, Miram Chalabiy, Abdullaziz kabi bir necha tarixiy shaxslar nomi ham tilga olinadi va ular syujet tizimidagi voqealarda ishtirok etib, Ulug'bek va Abdullatif obrazini yorqinlashtiradi. Ammo romanda to'qima qahramonlar salmog'i ko'proq. Mavlono Muhiddin, Nizomiddin Xomush, Qalandar Qarnoqiy, Hurshida Bonu, Salohiddin Zargar, Bibi Yulduz singari to'qima obrazlar ham roman

voqealarida faol ishtirok etadi. Ular garchi yozuvchining xayoli, fantaziyasi asosida yaratilgan bo'lsa-da, bu qahramonlarning so'zlash tarzi, kiyim-libosi, yashash joylari ko'rinishida Ulug'bek davrini tasavvur qilishga, shohning boshidan kechgan ziddiyatli voqealarni yaqindan his qilishga imkon beradigan xususiyat va sifatlar mavjud.

Adib ijodida o'ziga xos cho'qqi bo'lgan ushbu asar to'g'risida adabiyotshunos Umarali Normatov shunday deydi: "Ulug'bek xazinasi" romani 1970–1973-yillarda yozilgan, 1974-yilda alohida kitob holida bosilib chiqqan edi. Shundan beri asar qayta-qayta chop etildi, jahonning ko'plab tillariga tarjima qilindi. Jahon bo'ylab dovrug' qozondi. Shunga qaramay, adib roman ustidagi ijodiy ishini davom ettirdi. Asarning bobokalonimiz Muhammad Tarag'ay Ulug'bekning 600 yillik to'yi munosabati bilan chop etilgan nashriga ancha tuzatish va to'ldirishlar kiritdi; Ulug'bek hamda uning zamondoshlari hayotiga oid yangi ma'lumotlarni hisobga olgan holda, asar matnini tahrirdan o'tkazib chiqdi, Ulug'bekning umri so'ngida musharraf bo'lgan sevgisi, suyuklisi Yulduz bilan muloqotlari, sohibqiron bobosi Amir Temur haqidagi xotiralariga oid yangi lavhalar bilan to'ldirdi" [5, 421].

Haqiqatda, ijodkor qalb qo'ridagi tug'yonlarini so'zga ko'chirar ekan, qaysi zamon va makon bo'lmasin, inson qalb qo'ridagi orzu-umidlarini, intilishlarini, ezgu maqsadlarini mahorat bilan yoritib beradi. Aslida, inson qalbiga tez va oson yetib boruvchi san'at turlaridan biri bu badiiy adabiyotdir. Mana shu sirli olamda o'z ovozigacha va o'quvchisiga ega bo'la olgan hamda ayollar ko'ngil olamini, ruhiyatini mahorat bilan chizib bera olgan adib Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" tarixiy romani ham ko'pgina olimlarimiz e'tiborini tortgani ayni haqiqat. Zero, asl qiymatga ega bo'lgan oltin hech qachon zanglamaganidek, durdona asarlar yillar, davrlar o'tsa-da, o'z mavqeini yo'qotmaydi. Adibning mazkur asari ham mana shunday asarlar sirasiga kirishiga hech shubhamiz yo'q.

Adabiyotshunos olim Bahodir Karim ta'biri bilan aytganda, "Bizningcha, badiiy asarni mukammal talqin etish amri maholdir; unda har vaqt bahsli nuqtalar, ochiq maydonlar mavjudligicha qoladi" [6, 14]. Shunday ekan, bahsli mavzularga asos bo'la oladigan asar yetuk asarlar sirasiga kiradi. Bu esa yozuvchining iqtidori, iste'dodi va so'z san'atida o'z ovozigacha egaligidan dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Навоий А. Асарлар: 15 томлик. Т. 12. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1966. – 171 б.
2. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, б.й. – 127–128 б.
3. Белинский В. Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1955. – 326 б.
4. Ёқубов О. Улуғбек хазинаси: роман. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 4–5 б.
5. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи: дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – 421 б.
6. Карим Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уй, 2018. – 14 б.
7. Шарқ юлдузи журнали. – 2002. – № 3. – Б. 16.